




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12 (62) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВА
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (62)

2023

ноябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.11.2023, Accepted: 27.11.2023, Published: 10.12.2023.

UDC 616.61-036.12-07.001.33.

BUXORO SHAHRIDA YASHOVCHI O'SMIRLARDA SURUNKALI BUYRAK KASALLIGI RIVOJLANISH PREDIKTORLARI

Olimova Gulhayo Shamsher qizi <https://orcid.org/0000-0002-8942-7793>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, st. A. Navoiy. 1

Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Rezumye*

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smirlar o'rtasida surunkali buyrak kasalligining rivojlanishi erta aniqlanganda, 82 o'smirning 65,6 foizi (n= 54) siydikda mikroalbumin darajasi kasallikni keltirib chiqaradigan xavf omillari bo'lgan guruhda skrining maqsadida aniqlanganda mikroalbuminuriya darajasi har xil bo'lgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, mikroalbuminuriya aniqlangan o'smirlarda buyrak ko'ptokchalari filtratsiya tezligi o'g'il bolalarda o'rtacha 93,8±3,2 ml/min/1.73m² (max- 131- min 88,3) ni tashkil etib, 17,4 % hollarda giperfiltratsiya kuzatildi. O'smir qizlarda esa buyrak ko'ptokchalari filtratsiya tezligi o'rtacha ko'rsatgichi 90,3±3,7% ml/min/1.73m² (max- 133- min 82,6) ni tashkil etib, 10,7 % hollarda giperfiltratsiya mavjudligi aniqlandi (p>0.05). Ushbu indikator surunkali buyrak kasallikning rivojlanishini ko'rsatadigan diagnostik va bir vaqtning o'zida bashoratli ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: surunkali buyrak kasalligi, o'smirlar, mikroalbuminuriya, xavf omillari.

ПРЕДИКТОРЫ РАЗВИТИЯ ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНИ ПОЧЕК У ПОДРОСТКОВ ПРОЖИВАЮЩИХ В ГОРОДЕ БУХАРА

Олимова Гулхайё Шамшер кизи. <https://orcid.org/0000-0002-8942-7793>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али Ибн Сины, Узбекистан,

Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Резюме*

Результаты анализа показали, что при раннем выявлении прогрессирования хронического заболевания почек среди подростков 65,6% (N= 54) из 82 подростков имели различный уровень микроальбуминурии, когда уровни микроальбумина в моче были определены для целей скрининга в группе с факторами риска, вызывающими заболевание. Результаты анализа показали, что скорость фильтрации почечных шариков у подростков, у которых была диагностирована микроальбуминурия, составляла в среднем 93,8±3,2 мл/мин/1,73 м2 у мальчиков (Макс - 131 - 88,3 мин), гиперфльтрация наблюдалась в 17,4% случаев. Однако у девочек - подростков почечные шарики средний показатель скорости фильтрации составил 90,3±3,7% мл/мин/1,73 м2 (Макс - 133-82,6 мин), при этом в 10,7% случаев была обнаружена гиперфльтрация (p>0,05). Данный показатель имеет диагностическое и одновременно прогностическое значение, свидетельствуя о развитии хронического заболевания почек.

Ключевые слова: хроническое заболевание почек, подростки, микроальбуминурия, факторы риска.

PREDICTORS OF THE DEVELOPMENT OF CHRONIC KIDNEY DISEASE IN ADOLESCENTS LIVING IN THE CITY OF BUKHARA

Olimova Gulkhayo Shamsher qizi. <https://orcid.org/0000-0002-8942-7793>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali Ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, A. Navoi str.

1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ Resume

The results of the analysis showed that with early detection of the progression of chronic kidney disease among adolescents, 65.6% (N= 54) of 82 adolescents had different levels of microalbuminuria when the levels of microalbumin in urine were determined for screening purposes in the group with risk factors causing the disease. The results of the analysis showed that the filtration rate of renal globules in adolescents diagnosed with microalbuminuria averaged 93.8 ± 3.2 ml/min/1.73 m² in boys (Max - 131 - 88.3 min), hyperfiltration was observed in 17.4% of cases. However, in adolescent girls, renal globules had an average filtration rate of $90.3 \pm 3.7\%$ ml/min/1.73 m² (Max - 133-82.6 min), while hyperfiltration was detected in 10.7% of cases ($p > 0.05$). This indicator has diagnostic and at the same time prognostic value, indicating the development of chronic kidney disease.

Keywords: chronic kidney disease, adolescents, microalbuminuria, risk factors.

Dolzarbligi

Surunkali buyrak kasalligi - aholi salomatligi va mamlakatning iqtisodiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsata oladigan ijtimoiy dolzarb muammolardan biri sanalib, rivojlangan mamlakatlar aholisining deyarli 15% da uchraydi va uning oqibatida kelib chikadigan SBE bemorlar orasidagi nogironlik va o'lim holatlarining yuqoriligi bilan xarakterlanadi[1,2]. Olib borilayotgan keng qamrovli tadqiqotlar buyrak kasalliklarida qo'llanilayotgan o'rin bosuvchi muolajalar katta iqtisodiy xarajatlarni talab qilganligi uchun bu davo usulini hamma bemorlarga ham qo'llay olish imkoni yo'qligini ko'rsatmoqda[3,4].

Bolalar va o'smirlar orasida surunkali buyrak kasalligining tarqalishi taxminan 11% ni tashkil etadi. Ilmiy tadqiqotlar bu kasallik sabablari 74.6% buyrakning tugma patologiyalari, 24,3% esa orttirilgan nefropatiyalar bilan bog'liqligini ko'rsatgan[5,6]. Zamonaviy bolalar nefrologiyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri bu bolalar va o'smirlarda surunkali buyrak kasalligi belgilarini aniqlash va o'rganishdir, chunki uning rivojlanishi muqarrar ravishda surunkali buyrak yetishmovchiligining rivojlanishiga olib keladi[7].

Tadqiqotning maqsadi: Buxoro shahri hududida yashovchi o'smirlar orasida surunkali buyrak kasalliklari uchrash chastotasini aniqlash va keltirib chiqaruvchi xavf omillarini o'rganish, profilaktik chora-tadbirlarini optimallashtirish.

Material va usullar

Ilmiy-tadqiqot ishlariga Buxoro shahridagi 3 va 5 sonli oilaviy poliklinika hududida yashovchi o'smirlarda 82 nafar o'smir jalb etilgan bo'lib, ushbu o'smirlar maxsus ishlab chiqilgan "surunkali buyrak kasalligi rivojlanish xavfini aniqlash uchun so'rovnoma" to'ldirish va test chiziqlar yordamida yarim miqdoriy usulda siydikning bir qismida mikroalbuminni aniqlash usullari yordamida tanlab olindi. Tadqiqot 2 bosqichda amalga oshirilib, birinchi bosqichda o'smirlarning ambulatory karta ma'lumotlari, umumiy antropometrik ma'lumotlar va so'rovnoma ma'lumotlari hisobga olindi. Ikkinchi bosqichda ushbu guruh o'rtasida chuqurroq izlanishlar olib borilib, o'smirlardagi qonning umumiy tahlili, qonning biokimyoviy tahlili (umumiy oqsil, glukoza, lipid fraksiyasi, kreatinin, mochevina va zardobdagi kalsiy), siydik umumiy tahlili, siydikdagi mikroalbuminuriya va kreatinin, KFTni aniqlash va siydik ayirish sistemasi va kichik chanoq bo'shlig'i organlari UTT si bajarildi.

Natija va tahlillar

Tadqiqotga jalb qilingan o'smir yoshdagilar orasida surunkali buyrak kasalliklari rivojlanishiga olib keluvi xavf omillari va kasallik mavjudligini urganish maqsadida barcha o'smirlarda SBK erta aniqlash imkonini beruvchi laborator diagnostik tekshirishlar o'tkazildi. Bunda qon bioximiyaviy tahlilida: zrdobdagi kreatinin, kalsiy, xolesterin, ZJPLp miqdor va BKFT CKD-EPI formulasi yordamida aniqlandi. Barcha o'smirlarda ertalabki siydikning o'rta porsiyasida mikroalbumin miqdori aniqlandi. Olingan natijalar tahlili 1- jadvalda keltirilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, o'smir yoshdagilar orasida surunkali buyrak kasalligi rivojlanishini erta aniqlashda, kasallikni keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud bo'lgan guruhga kiruvchilarda skrining maqsadida siydikda mikroalbumin miqdori aniqlanganda 82 ta usmirdan 65,6% (n= 54) da turli darajadagi MAU borligi kuzatildi.

Surunkali buyrak kasalligi xavf omillari aniqlangan o'smirlarda kasallikni erta aniqlash uchun o'tkazilgan laborator diagnostik ko'rsatgichlar tahlili

Guruhlar	Kreatinin Mkmol/l	BKFT Ml/min/1,73 m ²	MAU	Kalsiy	xolesterin	ZJPLp
Nazorat guruhi n=15	49,6±3.7	129,2±5.9	5,7±1.2	4,3±1,07	2,5±0.8	1.1±0.5
O'g'il bolalar n=39	89,4±3.8	93,8±3.9	80,2±3.6	2,3±0.6	4,4±0.8	3,3±0.7
Qiz bolalar n=43	83,1±3.5	90,3±3.7	76,5±3.4	1,9±0.5	4,07±0.8	3.1±0.6

Surunkali buyrak kasalligi uchun xavf sanalgan turli omillarning uchrash darajasi, %

Xavf omillari	Ambulator kartalarida tashxis mavjud bo'lganlar (xavf omiliga kiruvchi kasalliklar va holatlar) n=54		χ^2	R	
	Abs	%			
Yaqin qarindoshlarida buyrak kasalliklari, QD borligi	1	1.9	5,1	>0,05	
Qandli diabet 1 tip	2	3.8	2,4	>0,05	
Semizlik va ortiqcha tana vazni mavjud	5	9.2	1,6	<0,001	
Anamnezda yoki tekshiruv paytida suyak va mushaklardagi patologik holatlar (osteopatiya belgilari)	3	5.7	1,8	<0,001	
Nefrotoksik dorilar ko'p qabul qilish	1	1.9	0,48	>0,05	
Sho'r va achchiq maxsulotlar ortiqcha iste'mol qilish	3	5.7	2,08	>0,05	
Zararli odatlar	1	1.9	13,61	<0,001	
Anamnezda proteinuriya	2	3.8	10,89	<0,001	
Anamnezida chala tug'ilish	5	9.2	0,60	>0,05	
Anamnezida o'tkir allergik reaksiyalar o'tkazganligi	4	7.6	14,41	<0,001	
Organizmdagi surunkali yallig'lanish o'choqlari	Surunkali tonzilit	13	24.7	1,30	>0,05
	Surunkali o'rta otit	4	7.6	3,18	>0,05
	Karies	10	19	1,04	>0,05

Izoh: Tahlil natijalari 1-3 guruhlariga kiruvchi 54 nafar o'smirlar soniga nisbatan olindi

So'rovnoma natijalari va mikroalbuminuriya darajasiga karab barcha tekshiriluvchilar 3 guruhga ajratildi:

1 guruh- MAU mavjud emas, ammo SBK keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud (n=24)

2 guruh- mikroalbuminuriya A1-A2 darajasi va SBK keltirib chiqaruvchi xavf omillari mavjud (n=19).


3 guruh - mikroalbuminuriya A2-A3 darajasi va SBK mavjud (n=11).

O'smirlarning 34,1% da (n=28) SBK va uni keltirib chiqaruvchi xavf omillari aniqlanmadi. Tadqiqotga jalb qilingan o'smirlar ambulator kartalari o'rganilganda, xavf omillari mavjud bo'lsada, SBK xaqidagi ma'lumotlar aniqlanmadi, va ularni "amaliy sog'lom" kontingent deb qabul qildik.

Ilmiy izlanishlar natijasida aniqlangan xavf omillari uchrash darajasi 2- jadvalda keltirilgan.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, o'smirlar orasida surunkali buyrak kasalligi kelib chiqishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi xavf omillardan eng ko'p ahamiyatga ega bo'lgani bu organizmda tashxislanmagan va o'z vaqtida davolanmagan surunkali yallig'lanish o'choqlarining mavjudligi, ortiqcha tana vazni, anamnezida chala tug'ilish kabi omillardir.

Ushbu xavf omillari o'smir yoshlar orasida jins bo'yicha uchrash darajasi tahlil qilindi (1-rasm).



1- rasm. O'smirlar orasida surunkali buyrak kasalligi tarqalganlik chastotasining jinsga bog'liq tahlili (%)

1- diagrammadan ko'rinib turibdiki, keng tarqalgan xavf omillarining jinsga bog'liq holda uchrash tahlili shuni ko'rsatadiki, o'smir yoshdagi o'g'il bolalar orasida semizlik va ortiqcha tana vazni, hamda anamnezida dizuriya, proteinuriya ustunlik qilsa, organizmda tashxislanmagan va o'z vaqtida davolanmagan surunkali yallig'lanish o'choqlari uchrash darajasi orasida farq jins tafovutida deyarli katta farq qilmaydi (mos holda o'g'il bolalarda 62,3% va qiz bolalarda 65,5% ni tashkil etdi).

Xulosa

Ushbu qilingan tadqiqotga ko'ra Buxoro hududida yashovchi bolalar va o'smirlar o'rtasida surunkali buyrak kasalligining rivojlanishini kuchaytiradigan ushbu xavf omillarini, ya'ni, organizmda tashxislanmagan va o'z vaqtida davolanmagan surunkali yallig'lanish o'choqlarining mavjudligi, ortiqcha tana vazni, anamnezida chala tug'ilish, anamnezda yoki tekshiruv paytida suyak va mushaklardagi patologik holatlar (osteopatiya belgilari) chuqurroq o'rganish va ambulator tekshiruv sharoitidan boshlab surunkali buyrak kasalligiga erta diagnoz qo'yish juda samarali va muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akhmedova N.Sh. The importance of proteinuria as a predictor of diagnosis and a factor for the development of chronic kidney disease // *European science review*. Vienna, 2018;7-8:84-85(14.00.00. №19).
2. Sharipovna A.N., Tulkinzhanovna S.G., Hayatovna M.M., Odiljonovna G.N. (2021). Analysis of the results of a study on the frequency of occurrence and prevalence of risk factors for chronic kidney disease. // *International Journal of Current Research and Review*, 2021;13(2):127-131. doi:10.31782/IJCRR.2021.13232
3. Akhmedova N. Sh. Evaluation of the functional state of the kidneys in overweight and obese patients // *Biologiya va tibbiyot muammolari*. Samarkand, 2018;4(104):15-18.
4. Muxammedjanova M.X. Predictors of anemia of chronic disease in patients with viral hepatitis B and C // "Asian journal of Pharmaceutical and biological research" jurnali 2023;12(2):17-26.
5. Mustafayeva M.R. Kontrastli indusirlangan nefropatiya profilaktik chora tadbirlar // *Central Asian journal of Education and Innovation* // Part 6 June 2023;101-104.
6. Muxammedjanova M.X. Pathogenetic aspects of the development of CPT-associated anemia in patients with chronic hepatitis C // «Tibbiyotda yangi kun» jurnali 2022;12(50):225-227.
7. Y.J. Jurayevich Pharmacoresistant form of epilepsy neurology, psychological and individual biochemical features, treatment tactics. // *Scientific Journal of Applied and Medical Sciences*, 2023.

Qabul qilingan sana 20.11.2023